

PORA OLISH-BERISHDA VOSTACHILIK QILISH JINOYATINING JINOIY- HUQUQIY TUSHUNCHASI VA TA'RIFI.

Raxmatov Rustambek Majit o'g'li

Bosh Prokuratura huzuridagi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi,

“Korrupsiyaga qarshi kurashish mutaxassisligi” tinglovchisi.

Elektron Pochta: raxmatovrustambek207@gmail.com

Telefon raqam: +99888 910 77 79.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11531365>

Annotatsiya. Ushbu maqolada poraxo'rlik jinoyatlarining ajralmas bir turi sifatida baholanuvchi, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 212- moddasi Pora olish – berishda vositachilik qilish jinoyatining tushunchasi, ta'rifi, uning olimlar tomonidan berilgan ta'riflari, xorijiy mamlakatlar jinoyat huquqida berilgan tushunchalarni o'zida aks ettiradi.

Kalit so'zlar: poraxo'rlik, pora olish, pora berish, pora olish-berishda vositachi, yordamchi, ishtirokchi, dalolatchi, pora olish-berish xususida kelishuv.

CRIMINAL-LEGAL CONCEPT AND DEFINITION OF THE CRIME OF MEDIATION IN BRIBERY.

Abstract. Assessed as an integral type of bribery crimes, Article 212 of the Criminal Code of the Republic of Uzbekistan contains the concept, definition of the crime of mediation in bribery, its definitions given by scientists, concepts given in the criminal law of foreign countries.

Keywords: bribery, bribe taker, bribe giver, mediation in bribery, assistant, participant, witness, bribery-specific agreement.

УГОЛОВНО-ПРАВОВОЕ ПОНЯТИЕ И ОПРЕДЕЛЕНИЕ ПРЕСТУПЛЕНИЯ ПОСРЕДНИЧЕСТВА ПРИ ВЗЯТОЧНИКЕ.

Аннотация. Статья 212 Уголовного кодекса Республики Узбекистан, оцениваемая в настоящей статье как неотъемлемый вид взяточничества, содержит понятие, определение преступления посредничества во взяточничестве, его определения, данные учеными, понятия, приведенные в уголовном праве зарубежных стран.

Ключевые слова: взяточничество, взяточник, взяткодатель, посредничество во взяточничестве, помощник, участник, свидетель, соглашение, касающееся взяточничества.

Poraxo'rlik jinoyati insoniyat tarixining ajralmas bir bo'lagi bo'lib, bunday turdagi jinoyatlar doimiy qoralanib kelingan. Chunki poraxo'rlik, jamiyatning turli jabhalarida o'sish va

rivojlanishning to'xtab qolishiga, oddiy xalqning islohotlarga bo'lgan ishonchining yo'qolishiga, davlat va jamiyat o'rtasidagi muvozanatning buzilishiga olib boruvchi salbiy oqibatlarining ildizidir.

Poraxo'rlik jinoyati keng tushuncha bo'lib, uchta jinoyat tarkibini: pora olish, pora berish va pora olish-berishda vositachilik qilishni qamrab oladi (JKning 210, 211, 212-m) Poraxo'rlik boshqa aksariyat jinoyatlardan farqli o'laroq kamida ikkita jinoyat sub'ekti (yoki pora oluvchi va pora beruvchi, yoki pora beruvchi va vositachi)ning albatta mavjudligini nazarda tutadi.¹

Shuningdek, ko'pgina mualliflar, jumladan, B.V.Zdravomislov, V.F.Kirichenko, V.E.Melnikova, N.A.Struchkov, D.Shargorodskiy "poraxo'rlik" atamasidagi pora berish, pora olish va pora olish-berishda vositachilik qilish xatti-harakatlari mustaqil jinoyatlar deb hisoblashgan.² Pora olish va berishda vositachilik qilish "poraxo'rlik" jinoyatlar tarkibiga kirganligi sababli, "pora", "poraxo'rlik", "pora olish", "pora berish", "vositachi", "vositachilik" tushunchalariga to'xtalishimiz lozim bo'ladi.

"Pora"- o'z xizmat mavqeyidan foydalangan holda sodir etilishi lozim yoki mumkin bo'lgan muayyan harakatni pora bergan shaxsning manfaatlarini ko'zlab bajarishi yoki bajarmasligi evaziga pora beruvchi yoki vositachidan qonunga xilof ekanligini bila turib olinadigan moddiy qimmatliklar, mulkiy naf.

Xalqaro konvensiyalar pora ta'rifida bir nechta umumiy elementlarga ega:

Pora - bu noto'g'ri foyda sifatida pul, sovg'alar, xizmatlar yoki va'dalar kabi mansabdor shaxsni o'z vazifalarini bajarishda biron bir harakat qilishga yoki undan voz kechishga undash maqsadida berilishi yoki olinishi maqsadida to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita uchinchi shaxs orqali berilishi yoki olinishi mumkin bo'lgan predmetlar.

Ushbu tushunchaga bir necha tarfadan yondashadigan bo'lsak, olimlar tomonidan turli ta'riflar berilgan. "Pora" – (mayda pul,chaqa) biror ishni noqonuniy tarzda bitirib bergani uchun mansabdor shaxsga beriladigan yoki berilgan narsa yoki pul.³

Poraning arabcha ma'nosi "rishva" bo'lib, Islom ulamolari unga: "Pora – kishi o'zi haqli bo'lmagan narsasiga erishishi yoki zimmasida lozim bo'lgan narsadan qutilishi uchun taqdim

¹ 3-98 Zufarov P.A. Порахурлик учун жиноийжавобгарлик. // Т/ТДЮИ., 2004. 221 - б.

² См., например: Кириченко В.Ф., Бойцов Б.В. Взятничество // Уголовная ответственность за хищения государственного или общественного имущества, хозяйственные преступления и взяточничество. - М., 1967 г., - С. 184; Гельфанд И.А. Хозяйственные и должностные преступления в сельском хозяйстве. - Киев, 1970. - С. 227., Мельникова В.Е., Ответственность за взяточничество. - М., 1982. - С. 5; Квициния А.К. Должностные преступления: уголовно-правовые и криминологические аспекты. - Тбилиси, 1988. - С. 153; Ляпунов Ю.И. Корыстные правонарушения нетерпимы. - М., 1989. - С. 84.

³ https://n.ziyouz.com/books/uzbek_tilining_izohli_lugati/O'zbek%20tilining%20izohli%20lug'ati%20-%20P.pdf100b Olingan sana: 20.04.2024

etgan mol yoki manfaatdir”, deb ta’rif beradilar.⁴ Shuningdek, M. Rustambayev “Pora” korrupsiya — hokimiyat va boshqaruv asoslarini yemiradigan, uning aholi oldidagi obro’siga putur yetkazadigan, fuqarolarning qonuniy huquq va manfaatlariga daxl qiladigan xavfli jinoiy hodisaning nisbatan ko‘p tarqalgan va o‘ziga xos hodisasi hisoblanadi”⁵ deya ta’rif bergan.

“Poraxo‘rlik”- bu mansabdor shaxsning vakolatiga kiradigan harakatlarni pora beruvchi foydasiga hal qilish (yoki qilmasligi) evaziga shu mansabdor shaxsning har qanday yo‘l bilan va har qanday shaklda moddiy qadriyatlar (pul va narsalar) olishi yoki biron moddiy naf ko‘rishidir.⁶ Transparency International xalqaro tashkiloti “ “poraxo‘rlikni” - noqonuniy, axloqiy bo‘lmagan yoki ishonchni suiiste'mol qiladigan harakatga undash sifatida afzalliklarni taklif qilish, va'da qilish, berish, qabul qilish yoki so'rash, rag'batlantirish pul, sovg'alar, qarzlar, yig'imglar, mukofotlar yoki boshqa imtiyozlar (soliqlar, xizmatlar, xayriyalar, ne'matlar va boshqalar) shaklida bo'lishi mumkin”. deya ta’rif bergan.⁷ Bizning fikrimizcha, “poraxo‘rlik”ning universal ta’rifi yo‘q, ammo barcha ta’riflarning umumiy jihati shundaki, u tayinlangan lavozimdagi kimdir manfaat evaziga unga bildirilgan ishonchni buzgan holda, manfaatdorlikni ko‘zlab, ixtiyoriy ravishda harakat qiladi. Manfaaddorlik naqd pul yoki to‘lov almashishni o'z ichiga olishi shart emas. Bu juda ko'p sovg'alar berish, mehmondo'stlik sifatida xarajatlar qilish, mulkka egalik qilish, qarindoshilari, do'stlariga xayrixohligi kabi ko'plab shakllarda bo'lishi mumkin.

“Pora olish” davlat organi, davlat ishtirokidagi tashkilot yoki fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi mansabdor shaxsining o‘z xizmat mavqeyidan foydalangan holda sodir etishi lozim yoki mumkin bo‘lgan muayyan harakatni pora berayotgan shaxsning manfaatlarini ko‘zlab bajarishi yoki bajarmasligi evaziga shaxsan o‘zi yoki vositachi orqali qonunga xilof ekanligini bila turib, moddiy qimmatliklar olishi yoxud mulkiy manfaaddor bo‘lishidir.⁸

“Pora berish”, davlat organi, davlat ishtirokidagi tashkilot yoki fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi mansabdor shaxsiga mazkur mansabdor shaxsning o‘z xizmat mavqeyi dan foydalangan holda sodir etishi lozim yoki mumkin bo‘lgan muayyan harakatni pora bergan shaxsning manfaatlarini ko‘zlab bajarishi yoki bajarmasligi evaziga qonunga xilof ekanligini bila turib bevosita yoki vositachi orqali moddiy qimmatliklar berish yoki uni mulkiy manfaaddor etishidir.⁹

⁴<https://iaau.uz/oz/news/2286>

⁵M.X.Rustambayev. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga sharhlar (Maxsusqism) 108-b

⁶Юридик Энциклопедия/ Ю.ф.д., проф. У. Таджихановнинг умумий тахририда. Т. 2001. 296 б

⁷<https://www.antibriberyguidance.org/guidance/5-what-bribery/guidance>

⁸ O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 210- moddasi <https://lex.uz/docs/-111453#-2965762>

⁹ O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 211- moddasi <https://lex.uz/docs/-111453#-2965762>

Pora olish bershda vositachilik – pora olish yoki berish xususidagi kelishuvga erishishga qaratilgan faoliyat, shuningdek manfaatdor shaxslarning topshirig‘i bilan porani bevosita berish.¹⁰

“Poraxo‘rlikda vositachilik” nafaqat eng keng tarqalgan, balki korrupsiyaga qaratilgan eng yashirin jinoyatdir. Ushbu jinoyat bilan yanada samarali kurashish uchun noqonuniy xatti-harakatlar, ularning kechikishiga qarshi kurashish va yangi choralarni ishlab chiqish kerak, shuning uchun "poraxo‘rlikda vositachilik" tushunchasiga asosiy yondashuvlarni har tomonlama o‘rganish arzirlidir.¹¹

Xalqaro standartlarda Pora olish berishda vositachilar uchun javobgarlik belgilanishi yuzasida tavsiyalar mavjud bo‘lishi bilan bir qatorda poraxo‘rlikda vositachilar” tushunchasiga ta’rif berib ketilgan.

Jumladan. BMTning Korrupsiyaga qarshi kurashish Konvensiyasida vositachilar mansabdor shaxsning o‘zi uchun yoxud boshqa jismoniy yoki yuridik shaxs uchun ommaviy mansabdor shaxsga, ushbu mansabdor shaxs o‘z lavozim vazifalarini bajarish vaqtida biron harakatni amalga oshirishi yoki harakat qilmasligi maqsadida uning nomidan, biron noqonuniy afzallikni va’da qilish, taklif etish yoki taqdim etish yoki mansabdor shaxs tomonidan talab qilib olish harakatlarini amalga oshiruvchi shaxs sifatida bayon etiladi¹²

OECDning “Mansabdor shaxslarning korrupsiya sodir etganda javobgarlikka tortish Konvensiyasi”da “Har qanday shaxs tomonidan, to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki vositachilar orqali, davlat mansabdor shaxsining foydasiga har qanday noqonuniy pul yoki boshqa imtiyozlarni qasddan taklif qilish, va’da qilish yoki berish, ushbu mansabdor shaxsning rasmiy vazifalarini bajarishi munosabati bilan muayyan harakatlari yoki harakatsizligi evaziga, buyurtmani olish yoki saqlash yoki xalqaro biznesni amalga oshirishda boshqa noqonuniy imtiyozlarni olish maqsadida. operatsiyalar, jinoiy jazolanadigan jinoyat tarkibini shakllantiradi.”¹³

Evropa Kengashi Konvensiyasida “Barcha xalqaro konvensiyalar poraxo‘rlikning bevosita va bilvosita shaklini o‘z ichiga oladi. Bilvosita pora- pora beruvchi vositachi orqali mansabdor shaxsga pora bergan, taklif qilgan yoki va’da qilgan hollarda sodir bo‘ladi. Shuningdek, mansabdor shaxs vositachi orqali pora so‘ragan yoki olgan holatlarni ham o‘z ichiga oladi. Vositachi har qanday shaxs bo‘lishi mumkin va ular pora beruvchi yoki mansabdor shaxs bilan bog‘liq bo‘lishi

¹⁰ O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 212- moddasi <https://lex.uz/docs/-111453#-2965762>

¹¹ Бондарь А. Я., Замараев В. И., Ревягин А. В. Посредничество во взяточничестве: понятие, проблемы и профилактика // Психопедагогика в правоохранительных органах. 2021. Т. 26, № 4(87). С. 472–479. [Elektron manba] <https://doi.org/10.24412/1999-6241-2021-4-87-472-479> Sana:24.04.2023

¹² Birlashgan Millatlar Tashkilotining Konvensiyasi . [Elektron manba] <https://lex.uz/docs/-1461329> Sana:24.04.2023

¹³ КОРРУПЦИЯ: ГЛОССАРИЙ МЕЖДУНАРОДНЫХ СТАНДАРТОВ В ОБЛАСТИ УГОЛОВНОГО ПРАВА - ISBN 9789264032491 - © OECD 2007. [Elektron manba] <https://www.oecd.org/daf/anti-bribery/41194582.pdf> Sana:24.04.2023

shart emas. Masalan, bilvosita pora bu pora beruvchi agent, moliya instituti yoki kompaniya xizmatlaridan o'z nomidan taklif, va'da yoki sovg'ani mansabdor shaxsga o'tkazish uchun foydalanganda sodir bo'ladi."¹⁴ deya ta'rif berilgan

Poraxo'rlik vositachiligi ba'zi olimlar sheriklik instituti bilan bog'lashdi. Masalan, M. I. Moiseyenko "Poraxo'rlikda vositachilik" tushunchasini jinoyat qonunchiligida huquqning o'ziga xos subyekti va ishtirokchisi sifatida "vositachi" "murakkab ishtirokchilik" deb nomlangan ilmiy doirada ma'lum bo'lgan jinoyatga sheriklik sifatida ta'riflashni taklif etadi.¹⁵

Bunga isbot tariqasida poraxo'rlikda vositachilik qilishning jinoiy rollarning aniq taqsimlanishini o'z ichiga olgan murakkab ishtirokchilik, ya'ni, nafaqat ijrochi, balki boshqa har qanday qo'shimcha sheriklar, masalan, dalolatchi yoki tashkilotchi bo'lishini ta'kidlashgan.¹⁶

Ba'zi mualliflar ushbu jinoyat tarkibidagi subyekt nafaqat tashkiliy ishlar va qo'zg'atuvchi funksiyalarni amalga oshirishi kerak deb ishonishadi, shuningdek, ishtirokchilikka xos bo'lgan maxsus xususiyatlarga ega bo'lgan jinoyat ijrochisi sifatida qarashadi.¹⁷

Yuridik ensiklopediya lug'atlarda ta'riflar berilgan bo'lib, unga ko'ra, Poraxo'rlikda vositachi – bu pora beruvchi yoki pora oluvchining iltimosi yoki topshirig'iga binoan pora olish to'g'risidagi kelishuvga erishish yoki amalga oshirish uchun faoliyat yurituvchi shaxs.¹⁸

P. Yani "Huquqiy jihatdan "poraxo'rlik vositachiligi" - bu sheriklik institutiga nisbatan jinoyat huquqining umumiy normalari bilan raqobatlashadigan maxsus me'yor"¹⁹ deya ta'rif bergan

Sovet jinoyat huquqi nazariyasida poraxo'rlik vositachiligida pora berish jarayonida vositachi topshiriqning mohiyati to'g'risida biladi degan tushuncha mavjud edi va bu ushbu jinoyat tarkibining subyektiv tomonidan to'g'ri deb qaralgan. Jinoyat huquqi sohasidagi sovet olimlari "poraxo'rlik vositachiligi" bog'liqligini vositachining jinoyatdagi roliga qarab ko'rib chiqilgan:

1. Vositachi pora berish yoki olish subyektlaridan birining iltimosiga ko'ra harakat qiladi va uning roli pora predmetini faqat bir marta o'tkazish bilan tugamaydi.

¹⁴ Пояснительная записка, Конвенция Совета Европы, п. 37. [Elektron manba] <https://www.oecd.org/daf/anti-bribery/41194582.pdf> Sana: 04.05.2024

¹⁵ Моисеенко Михаил Иванович Посредничество во взяточничестве : Уголовно – правовая характеристика и вопросы квалификации. Автореферат. 2015.

¹⁶ Бондарь А. Я., Замараев В. И., Ревягин А. В. Посредничество во взяточничестве: понятие, проблемы и профилактика // Психопедагогика в правоохранительных органах. 2021. Т. 26, № 4(87). С. 472–479. [Elektron manba] <https://doi.org/10.24412/1999-6241-2021-4-87-472-479> Sana: 24.04.2023

¹⁷ Бриллиантов А. В. Уголовная ответственность за посредничество во взяточничестве // Российское правосудие. 2013. № 2. С. 87–93.

¹⁸ Коррупция тушунчаси ва унга қарши курашишга оид атамалар изоҳли луғати [Матн] /И.Б. Ибрагимович, Э.Ф. Гадоев Тошкент: "Tafakkur" нашриёти, 2019. – 168 б

¹⁹ Яни П. С. Посредничество во взяточничестве // Законность. 2011. № 9. С. 12–18.

2. Vositachi “pora predmetini yetkazib beruvchi” nomi ostidagi texnik funktsiyani bajaruvchi rolini bajaradi.²⁰

SSSR Oliy sudi Plenumining 1962 yil 31 iyuldagi "Poraxo'rlik amaliyoti to'g'risida"gi Qarorida "Vositachi - pora beruvchining yoki pora oluvchining iltimosiga yoki topshirig'iga binoan harakat qiladigan, pora olish yoki berish to'g'risida kelishuvga erishish yoki amalga oshirishga yordam beradigan shaxs bo'lishi nazarda tutilgan"²¹.

Shunday qilib, pora olish yoki pora berishda vositachining hal qiluvchi roli uning xatti-harakatlarning o'ziga xos xususiyatlariga bog'liq bo'lgan. MDHga a'zo davlatlar Jinoyat kodeksida "Poraxo'rlikda vositachilik" deganda pora beruvchi va oluvchi o'rtasidagi kelishuvning timsoli tushunilgan.²²

S. I. Ojegovning lug'atida "vositachilik" so'zi “tomonlar o'rtasida shartnoma yoki bitimni osonlashtirish harakati”²³ sifatida talqin qilingan. Bundan taxmin qilish mumkinki, jinoyat qonunchiligida vositachi asosiy shaxs hisoblanadi.

Shuningdek, A. Kugatovning ta'rificha “Jinoyat sodir etishda vositachilik” deganda – bu narsaning, qurol, jinoyat sodir etish vositalari yoki shaxs nomidan ma'lumotlar; boshqa shaxsga o'tkazilishi, jinoyat sodir etishda boshqa sherik, shuningdek uchinchi shaxslarning ishtirok etishga, jinoiy fitnaga erishishga va amalga oshirishda yordam berish, aloqalarni o'rnatish va amalga oshirishni ta'minlashdir.²⁴

Bondar.A.Y, Zamrayev.V.I, Revyagin.A.Vlar “Poraxo'rlik vositachiligi — bu pora oluvchi yoki pora beruvchi nomidan tegishli vositachilik funktsiyalarini bajarish, ular o'rtasida aniq maqsadga yoki boshqa kelishuvga erishishga qaratilgan faoliyat.”²⁵ deya ta'rif berishgan.

Hozirgi Rossiya Federatsiyasining Jinoyat kodeksida quyidagicha ta'rif berilgan- “Pora olishda vositachilik qilish, ya'ni pora beruvchi yoki pora oluvchi nomidan porani to'g'ridan-to'g'ri pora beruvchiga yoki pora oluvchiga berish va (yoki) pora olish va berish to'g'risida ular o'rtasida kelishuvga erishish yoki amalga oshirishda hissa qo'shish.”²⁶

²⁰ Моисеенко М. И. Посредничество во взяточничестве: уголовно-правовая характеристика и вопросы квалификации : автореф. дис. ... канд. юрид. наук. Екатеринбург, 2015. С. 24.

²¹ : Здравомыслов Б.В. Должностные преступления. Понятие и квалификация. М., 1975. С. 152.

²² Яни П. С. Проблемы квалификации посредничества во взяточничестве // Законность. 2013. № 2. С. 24–29.

²³ Ожегов С. И., Шведова Н. Ю. Толковый словарь русского языка. М., 2007. С. 569.

²⁴ Кугатов Антон Николаевич. Посредничество в совершении преступлений уголовно – правовые аспекты. АВТОРЕФЕРАТ диссертации на соискание ученой степени кандидата юридических наук. Москва — 2015

²⁵ : Бондарь А. Я., Замаев В. И., Ревягин А. В. Посредничество во взяточничестве: понятие, проблемы и профилактика // Психопедагогика в правоохранительных органах. 2021. Т. 26, № 4(87). С. 472–479. [Elektron manba] <https://doi.org/10.24412/1999-6241-2021-4-87-472-479> Sana:24.04.2023

²⁶ Статья 291.1. Посредничество во взяточничестве . [Elektron manba] <https://base.garant.ru/10108000/235d35558428b1316e28fefcc76137be/> Sana:25.04.2024

Poraxo'rlik vositachiligi - bu pora berish va olishda sheriklik uchun javobgarlik normalariga nisbatan maxsus norma. Vositachi pora predmeti sifatida unga tegishli yoki noqonuniy ravishda sotib olingan mol-mulkdan foydalangan holda pora beruvchining mol-mulki hisobidan harakat qilib, pora beradigan shaxs.

R. Zufarov, "Vositachining faoliyatini faqat porani berish bilan cheklash, shuningdek, unga "pora berish yoki olishga ko'maklashish" sifatida qarash bu tushunchaning mazmunini asossiz cheklash va hatto noto'g'ri talqin qilish hamda uni pora berish-olishdagi ishtirokchilikning boshqa shakllari bilan, xususan yordamlashish bilan aralashtirish demakdir"²⁷ deya fikr bildirgan.

Xulosa qilib shuni ayta olamizki, "Vositachi" mustaqil shaxs va u "moddiy" yoki "nomoddiy" manfaat ko'zlagan holda "pora olish" va "pora berish" harakatlarini tashkilashtiradi, kelishadi va o'rtada ma'lum miqdorda foyda olishni albatta, ko'zlab harakat qiladigan shaxs va uning alohida javobgarligining belgilanishi poraxo'rlik jinoyatlari subyektlarini aniqlash va kvalifikatsiya qilishda turli nomuvofiqliklarni oldini oladi.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 22. 09. 1994- <https://lex.uz/docs/-111453#-266471>
2. "Poraxo'rlik ishlari bo'yicha sud amalyoti" O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining qarori, 24.09.1999 yildagi 19-son. <https://lex.uz/docs/-1449106>
3. Уголовный кодекс Российской Федерации УК РФ от 13.06.1996 N 63-ФЗ
4. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Konvensiyasi . <https://lex.uz/docs/-1461329>
5. Коррупция: Глоссарий международных стандартов в области уголовного права - ISBN 9789264032491 - © OECD 2007. <https://www.oecd.org/daf/anti-bribery/41194582.pdf>
6. 3-98 Zufarov P.A. Порахурлик учун жиноий жавобгарлик. // Т/ТДЮИ., 2004. 221 - б. м <https://base.garant.ru/10108000/>
7. Кириченко В.Ф., Бойцов Б.В. Взятничество // Уголовная ответственность за хищения государственного или общественного имущества, хозяйственные преступления и взяточничество. - М., 1967 г., - С. 184;
8. Гельфанд И.А. Хозяйственные и должностные преступления в сельском хозяйстве. - Киев, 1970. - С. 227.,

²⁷ Zufarov P.A. Порахурлик учун жиноий жавобгарлик. // Масыул мухаррир М.Х. Рустамбоев юридик фанлари доктори, профессор. - Т/ТДЮИ., 2004. 221 - б.

9. Мельникова В.Е., Ответственность за взяточничество. - М., 1982. - С. 5; Квициния А.К. Должностные преступления: уголовно-правовые и криминологические аспекты. - Тбилиси, 1988. - С. 153;
 10. Ляпунов Ю.И. Корыстные правонарушения нетерпимы. - М., 1989. - С. 84.
 11. M.X.Rustambayev. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga sharhlar (Maxsusqism) 108-b
 12. Юридик Энциклопедия/ Ю.ф.д., проф. У. Таджихановнинг умумий тахририда. Т. 2001. 296 б
 13. Бондарь А. Я., Замараев В. И., Ревягин А. В. Посредничество во взяточничестве: понятие, проблемы и профилактика // Психопедагогика в правоохранительных органах. 2021. Т. 26, № 4(87). С. 472–479. [Elektron manba] <https://doi.org/10.24412/1999-6241-2021-4-87-472-479>
 14. Кугатов Антон Николаевич. Посредничество в совершении преступлений уголовно – правовые аспекты. АВТОРЕФЕРАТ диссертации на соискание ученой степени кандидата юридических наук. Москва — 2015
 15. Моисеенко М. И. Посредничество во взяточничестве: уголовно-правовая характеристика и вопросы квалификации: автореф. дис. ... канд. юрид. наук. Екатеринбург, 2015. С. 24.
 16. Здравомыслов Б.В. Должностные преступления. Понятие и квалификация. М., 1975. С. 152.
 17. Яни П. С. Проблемы квалификации посредничества во взяточничестве // Законность. 2013. № 2. С. 24–29.
 18. Ожегов С. И., Шведова Н. Ю. Толковый словарь русского языка. М., 2007. С. 569.
 19. Пояснительная записка, Конвенция Совета Европы, п. 37. [Elektron manba] <https://www.oecd.org/daf/anti-bribery/41194582.pdf>
 20. Коррупция тушунчаси ва унга қарши курашишга оид атамалар изоҳли луғати [Матн] /И.Б. Ибрагимович, Э.Ф. Гадоев Тошкент: “Tafakkur” нашриёти, 2019. – 168 б
- Internet resurslar**
21. https://n.ziyouz.com/books/uzbek_tilining_izohli_lugati/O'zbek%20tilining%20izohli%20lug'ati%20-%20P.pdf100b
 22. <https://iiiau.uz/oz/news/2286>
 23. <https://www.antibriberyguidance.org/guidance/5-what-bribery/guidance>